



O'QUV JARAYONIGA ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Pulatova O. X.

*Andijon mashinasozlik instituti
“Gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti*

Tayanch soʻzlar: aql-zakovat, mutaxassis, texnika, texnologiya, zamonaviy taʼlim, yangicha yondashuv, ijodkor.

Ключевые слова: интеллект, эксперт, техника, технологии, современное образование, новый подход, креатив.

Key words: intelligence, expert, technique, technology, modern education, new approach, creativity.

Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon odimlab borayotgan mamlakatimizda kadrlar masalasi, yosh avlod tarbiyasi birinchi oʻrindagi muhim masalalar qatorida boʻlib qolmoqda. Zeroki, Oʻzbekiston ravnaqi, kelajagi shu yoshlar, yaʼni zamonaviy kadrlar qoʻlida ekan, jamiki eʼtibor ularning hur fikrli boʻlishi, jahon taʼlim standartlariga mos kela oladigan taʼlim olishi buyuk kelajak uchun qoʻyilayotgan mustahkam poydevordir[1]. Buning uchun esa, avvalo, taʼlim sifatini jahon andozalariga mos ravishda oshirish lozimdir. Zamonaviy taʼlim olishning oʻzi har bir shaxs zimmasiga katta masʼuliyat yuklaydi.

XXI asr – texnika va texnologiya asri ekanligi hammamizga maʼlum. Bu nom bejizga berilmagan. Atrof-muhitda sodir boʻladigan hodisalar uni oʻrganishga boʻlgan qiziqishni yanada ortirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli koʻrilmagan kashfiyotlar paydo boʻldi va koʻpayishda davom etmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Shu oʻrinda, bu yangiliklar xususan, turli xil gadjetlar, qurilma-yu moslamalar inson hayotining ajralmas boʻlagiga aylanib bormoqda. Hozirgi zamonamizda ulardan unumli foydalanish dolzarb mavzulardan hisoblanadi[2].

Darhaqiqat, farovon kelajak poydevori hozirda unib-oʻsib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli, ularning yuqori darajadagi bilim va koʻnikmalarga ega boʻlib voyaga yetmoqlari muhim omildir.



Zeroki, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol toptirish, yuksak g'oyali, milliy g'ururli, chuqur ma'lumotli, ma'naviy va jismoniy yetuk qilib yetishtirish maqsadini ko'zda tutadi va o'z harakatlarini shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi[3]. Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish, ta'lim sifatini oshirish, mavjud ta'lim dasturlarini zamonaviy talablarga muvofiq isloh qilish va yosh avlod tarbiyasi muammolarini oqilona tarzda hal qilish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu ulug' niyatlarni amalga oshirishda, avvalo, ta'lim tizimini maktab yoshigacha bo'lgan bola tarbiyasidan boshlab, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yuksak aql-zakovat mohiyatini shakllantirish, buning uchun zamonaviy moddiy-texnik va axborot bazasini yaratishgacha bo'lgan barcha sohalarni isloh etish kerak.

Ta'lim tizimini isloh etish va uning sifatini oshirish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy - siyosiy sohalar sekin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi, inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

Bugungi kunda hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning tub mohiyati bevosita ta'lim jarayoniga taqaladi[4]. Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ta'lim mazumuni tizimini isloh qilish;
- ta'lim - tarbiya tizimini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini isloh qilish;
- ota-ona, o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali respublikamizning intellectual imkoniyatlarini gullab-yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta'limda eng muhim strategik yo'nalish ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta'lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim maskanlarida innovatsion texnologiya ko'rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan[5]. Xususan, hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchaygan.

Ta'limning samaradorligini oshirish o'z o'rnida yoshlarning ta'lim markazida bo'lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta'minlashga xizmat qiladi[6]. Bu yo'lda ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi

bilimlarni mustahkam egallagan kadrlar talab etilishi bilan bir qatorda ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda foydalana oladigan mutaxassislar zarur. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni xam o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi[7].

“Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman”,- buyuk faylasuf Konfutsiyga tegishli bu hikmatli so'z yuqoridagi fikrlarimizga dalildir.

Ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma, malaka, balki umumisoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak - atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi juda muhimdir. Ilg'or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim omildir[8]. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tomoni maktab darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyada tuzish lozimligidir. Darsliklar tuzish ko'p yillik ilmiy, madaniy, estetik, ma'naviy tajribalarga tayangan holda amalga oshirilmog'i kerak.

Ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi[9]. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, hulq-atvoriga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarini yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu ilg'or pedagogik tajribadir. Ilg'or pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir[10]. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishi, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, zamonaviy, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalar hamda innovatsion texnologiyalardir. Ilg'or pedagogik tajriba o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va



qonuniyatlarni ochish, o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi, sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash; ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini tahlil qila olish tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur [11]. Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishi, o'z fanining muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi, va nihoyat, o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi [12]. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida olimlarning tajribalarini to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarini egallaydi. Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O'quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsa-da, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo'ladi. O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg'or pedagogik tajribalarga tayanishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limda ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada takomillashtirish zarur. Bu orqali biz yoshlarimizning quyidagi xususiyatlarini rivojlantirgan bo'lamiz:

- bilim, ko'nilma va malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jahon arenalariga intilishlariga zamin yaratish hamda ularning yetuk kadr sifatidagi raqobatbardoshligini oshirish;
- ularda ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirish.

Yana shuni aytish lozimki, bugungi kunda oldimizda turgan asosiy hamda buyuk vazifamiz har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazadi.

Adabiyotlar:

1. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005.
2. Ишмухамедов Р., Абдук одиров А. Таълимда инновацион технологиялар. Т., 2008
3. Khamidovna P. O. The Role of Intellectual Thinking in the Maturation of a Student's Personality //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 85-87.



4. Khamidovna P. O., Zilola K. Regulatory framework issued in uzbekistan to ensure the integration of science, education and production //Мехатроника va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 52-55.
5. Khamidovna P. O. Issues of development of the communication culture of technical students // world of science: journal on modern research methodologies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 32-35.
6. Пулатова О. Х. Талаба шахсининг камол топишида ижодий фаолиятнинг ўрни //modern problems in education and their scientific solutions. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 6-14.
7. Khamidovna P. O. On the Issues of Studying the Problems of Unorganized Youth //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 316-318.
8. Khamidovna P. O. Features of the Use of Modern Didactic Tools in Technical Higher Educational Institutions //Telematique. – 2023. – С. 7630–7634-7630–7634.
9. Khamidovna P. O., Zuhra Y. Development of youth communication through the media in technical higher education institutions //modern problems in education and their scientific solutions. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 71-83.
10. P.O Khamidovna. Communication culture of individuals // European Journal of Humanities and Educational Advancements // EJHEA – 2023.-Т.4.- №4 С-32-36
11. Pulatova O. Issues of organizing innovative activities of future specialists //International Conference on Education and Social Science. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 164-168.
12. Пулатова О. Х. Талабаларнинг касбий тайёргарлигини хорижий тажрибалар орқали такомиллаштириш //modern educational system and innovative teaching solutions. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 53-62.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta'limning samaradorligini oshirish o'z o'rnida yoshlarning ta'lim markazida bo'lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta'minlashda, ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallagan kadrlar talab etilishi bilan bir qatorda ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda foydalana oladigan mutaxassislar zarurligi haqida fikrlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье дается представление о том, что повышение эффективности образования необходимо не только для обеспечения того, чтобы молодежь находилась в образовательном центре и получала самостоятельное образование, но и для того, чтобы образовательным учреждениям требовались хорошо подготовленные и хорошо владеющие знаниями в своей области кадры, но и для того, чтобы у них были специалисты, знающие современные педагогические технологии и интерактивные методы, которые они могут использовать при организации учебных занятий.

SUMMARY

This article provides an idea that improving the effectiveness of education is necessary not only to ensure that young people are in an educational center and receive independent education, but also so that educational institutions require well-trained and knowledgeable personnel in their field, but also so that they have specialists those who know modern pedagogical technologies and interactive methods that they can use when organizing training sessions.